

# **COVID-19: Germaniyaga kirish qoidalari**

**2022 31 Yanvar**

Mamlakatimizda Covid-19 virusi bilan kasallanish darajasi yuqori bo'lgani sababli, 2022-yil 22-yanvardan O'zbekiston Respublikasi qayta "Hochrisikogebiet – virusni yuqtirish xavfi yuqori bo'lgan hudud" mamlakatlar ro'yxatiga kiritildi.

Shu munosabat bilan, GFRga borishni rejalashtirayotgan yo'lovchilar Toshkent – Frankfurt yo'nalishi bo'yicha parvozga ro'yxatdan o'tishdan oldin onlayn shaklni to'ldirishlari kerak <https://www.einreiseanmeldung.de>.

Aks holda, yo'lovchilar parvozga qabul qilinmaydi.